O'SMIRLIK VA ILK O'SPIRINLIK DAVRIDA KORREKSIYANING O'ZIGA XOSLIGI

Sattorov Ikrom Baxtiyor o'g'li
Jizzax viloyati Jizzax shahar
Maktabgacha va Maktab Ta'limi Bo'limiga qarashli
5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi
sattorovikrom199@gmail.com
+998915928083
https://doi.org/10.5281/zenodo.10205280

Annotatsiya: ushbu maqolada o'smirlik davrining biologik, psixologik jihatdan rivojlanishi, o'smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo'llari va unga ta'sir etadigan ijtimoiy omillarning turli hil masalalari, olimlar tomonidan o'smirlardagi qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklarni sabablari va ularni bartaraf etish usullari xaqidagi fikrlari berilgan.
Kalit so'zlar: o'smir, psixik o'sish, kamolot, jinsiy balog'at, xarakter, xususiyat, o'z-o'zini anglash, ota-ona, pedagog, psixolog, e'tibor, qiziqish.

O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib yangi hislar, sezgilar, tuyg'ular paydo bo'ladi. Bu davrda o'smir hayotida fiziologik va psixologik o'zgarishlar juda ham keskin sur'atlarda amalga oshadi. Kichik maktab yoshidagi novcha qizlarning yonida bo'yi pastroq lekin serharakat bolalar o'smirlik davrida novcha qizlarga yetib oladilar, hattoki ulardan o'zib ham ketadilar. Bu davrda qiz bolalar 5-7 smga o'ssalar,o'g'il bolalar esa unadan yuqori 5-10 smga o'sib ketadilar. Bo'y o'sishi naysimon suyaklar va umurtqa pog'onasining uzayishi hisobiga ro'y beradi. Bu davrda naysimon suyaklarning oxirgi tayanch qismlari hali yetarli darajada suyaklanmagan,yumshoq bo'ladi. Bu xususiyatlarni nazarda tutish, o'smirlar sportning murakkab,og'ir turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'ymasligi kerak.Aks holda bolalarning umurtqa pog'onasi qiyshayib bo'yi o'smay qolishi mumkin.Og'iz bo'shlig'iga hamda halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o'zgaradi. Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazminroq bo'lib qoladi va do'rillaydi. Ayni shu holat ham o'smir psixikasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Agar ularning ovozi muhokama qilinaversa, ustidan kulinaversa o'smir aggressor, urishqoq bo'lib qoladi. Shuning uchun ham kattalar o'smirlar bilan qanday muomala qilishni bilishlari kerak. Chunki ular o'zlari bilan xuddi kattalardek muomala qilishlarini xohlashadi. Insonning o'zining "Meni" ham shu davrda rivojlana boshlaydi va u o'zligini anglashni o'rganadi. Ular o'zlarining layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlariga va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. O'smirlik davri "O'tish davri", "Krizis davri", "Qiyin davr" kabi nomlarni olgan psixologik ko'rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o'smirlarning xatti-harakatlaridagi muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rnini topa olmaslik, psixik portlash hollari ham kuzatiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarning faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning

talablariga qarshilik qiladi hamda o‘zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O‘smirning yangi huquqlarga da’vosi, avvalo, kattalar bilan o‘zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo‘ladi. O‘smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko‘rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u norozilik bildiradi.

O’smirlik – bolalikdan kattalikka o’tish davri bo’lib, fiziologik va psixologik jihatdan o’ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi va bu davrda o’smir tarbiyasiga e’tibor qaratish va bu tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarga yuzaki qaramaslikni taqozo etadi. O’smirlardagi asosiy o’zgarishni nimalar tashkil etadi? O’smir o’zini asta – sekin katta odam deb qis qila boshlaydi, lekin ko’p odat va xususiyatlari bolalarcha bo’lib qoladi. Bu hissiyot kattalik hissi deb ataladi va o’smirlikda asosiy psixologik yangilikdir. Bu his o’smirda o’ziga, atrofga muhitga, odamlarga nisbatan yangi hissiy pozitsiyani yuzaga keltiradi. U bolalar xulq-atvorini kattalar xulqi va qadriyatlariga qayta orientatsiya qila boshlaydi. O’smir o’z huquqlari doirasini kengaytiradi, kattalarni esa cheklashni xohlaydi. O’smirlar bilish jarayonlarida ham o’sish kuzatiladi. O’smirning qiziqishlari ortadi, bilish faoliyati maktab programmasidan tashqariga chiqadi, mustaqil o’qiy boshlaydi. Uning tafakkurida tanqidiylik, mustaqillik hosil boladi. O’qituvchi o’quvchilarga o’quv materilallarini taqqoslashni, mavhumlashtirishni, o’z fikrini tog’ri, ravon va aniq ifodalash yo’lini tushuntirib berishlari lozim. O’smirlarning o’quv faoliyatida, o’quv materialaini o’zlashtirish darajasida, umumiy intellektual rivojlanishida turli darajadagi o’quvchilarni uchratish mumkin. Maktabda o’qitiladigan fanlar o’smir uchun o’z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo’lib xizmat qiladi. J.Piajening ta’kidlashicha, “Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi”. Bu borada o’zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o’z-o’zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. Ma’lumki, o’smirlik davrida o’smirning “meni” qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o’z-o’ziga bo’lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlari yo’nalishi keskin o’zgaradi. O’smir yoshidagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o’zini endi kichkina bola emas, balki katta bolib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o’smir shunday qilishga haqqi borligiga o’zini-o’zi ishontiradi, chunki men endi “katta bo’lib qoldim” deb o’ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar “katta bolib qolganlik tuyg’usi” ni shaxsning o’smirlik yoshdagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladlar. L.S.Vigotskiy o’smirlik davrida qiziqishlarining o’zgarishiga bog’liq ravishta ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko’rsatgan. Salbiy faza ilgarigi qiziqishlarining so’nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bolishi bilan bog’liq. Bunda quyidagi salbiy xulq-atvor ko’rinishlari namoyon boladi: ish qobilyatining, o’zlashtirishining pasayishi, o’smirning qo’polligi va yuqori qo’zg’aluvchanligi, uning o’zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarining paydo bo’lishi bilan xarakterlanadi. O’smirda boshqalarning va o’zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo’ladi. O’smirlik davridagi inqiroz - o’smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat’iy o’zgarishi, buzilishidir.

O’smirlar o’zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo’li bilan ham osongina ko’rish mumkin, o’smirlik yoshiga xos bo’lgan psixologik xususiyatlarni o’rgana turib, o’smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga

erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar taraqiyotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi.

O`smirlarning yoshi ham jismoniy psixik hususiyatga egadir,organizm Pavlov ta'limotiga ko`ra,bir butun sitsemadan iborat bo`lib,bunda barcha to`qimalar va organlar fiziologik jarayonlar uzviy ravishda bir-biri bilan bog`langan bo`ladi. Lekin bir butunlikda nerv sitemasi va uning bilan bog`langan yuqori qismi I.P.Pavlov so`zi bilan aytganda organizmda sodir bo`ladigan barcha hodisalarni boshqarib turuvchi bosh miya po`tsi asosiy yetakchi rolni o`ynaydi.O`smirlik yoshida nerv sistemasining yuqori qismi sifat jihatidan o`sa boshlaydi va miya ichki to`zilishining murakkablashishga o`tadi. Katta yarim sharda nerv xujayralarning yetishi tugallanadi. O`smir organizmining jismoniy taraqqiyoti uning organlari va to`qimalarining rivojlanishi bosh miya po`tsining boshqaruvchanlik roli otsida amalga oshadi,ammo o`sib borayotgan to`qimalar va organlar o`z navbatida nerv sitsmasining o`sishiga ta'sir ko`rsatadi.O`smirlik yoshida o`pkaning xajmi kattalashadi nafas olish ancha miqdorda tezlashgan va sayoz bladi.O`smirlik yoshida bola qancha toza havoda yursa shuncha foydalidir.

O'smirlik davriga juda ko'p ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar xos. Maktab dasturini o'zlashtirish va boshqa ishlar bilan bog'liq turli masalalarni yechishda ko'zga tashlanadigan o'smirlarning intellektual rivojlanganligi kattalarni ular bilan birga jiddiy muammolar bo'yicha fikrlashga undaydi, o'smirlarning o'zlari ham bunga harakat qiladilar. Boshqa tomondan esa ayniqsa, kelajak kasb, xulq-atvor etikasi, o'z majburiyatlariga mas'ullik kabi muammolar muhokamasida infantillik (yosh bolarlarga xos jismoniy va psixologik holat)ni kuzatish mumkin. 5-6 sinf o'quvchilariga sinfdagi o'zi egallagan mavqeiga katta e'tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6 sinfdan boshlab, o'quvchilar o'z tashqi ko'rinishlariga, shuningdek, qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o'zaro munosabatlariga e'tibor bera boshlaydilar.7-sinf o'quvchilarida esa o'z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o'quvchilari esa mustaqilik, o'ziga xoslik, do'stlik va o'rtoqlik bilan bog'liq bo'ladigan shaxsiy xislatlarni yuqori baholashadi. O'smirlarning ana shu ketma-ket yuzaga keladigan qiziqishlariga asoslangan holda faol ravishda irodaviy ishbilarmonlik va boshqa foydali sifatlarni rivojlantirish mumkin. O'smirlik davrida o'quv fanlarini turli o'qituvchilar o'qitishlari bilan kattalar shaxsi va faoliyatni baholashning yangi mezonlari ham shakllana boshlaydi. O'smirlik asosan, bilimli, talabchan, haqqoniy, o'quv materialini qiziqarli va tushunarli yo'l bilan yetkaza oladigan, o'quvchilarni ajratmaydigan o'qituvchilarni ko'proq hurmat qiladilar va yaxshi ko'radilar. Ular o'qituvchi bilan munosabatlariga ham katta e'tibor beradilar. 10-15 yoshli bolalarning faoliyat motivlarida ham o'zgarishlar amalga oshadi. Ilk o'smirlik davrida ko'pchilik o'smirlar o'zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bo'lgan sari o'smirning o'z-o'ziga bergan bahosi differentsial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutishga va ayrim xatti-xarakatlari)da namoyon bo'la boshlaydi

O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epchil bo'lishga intiladi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda,

vasiylik qilishganda, yo‘naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo‘ladi va norozilik bildiradi. O‘smirda o‘z qadrini bilish hissi paydo bo‘ladi va u o‘zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo‘lmagan inson, deb biladi.

O’smirlik va ilk o’spirinlik davrida korreksiya, insonning o’z-o’zini tuzatish, o’zlashtirish va o’zgarmasini aniqlash uchun kerakli jarayonlardir. Bu davrda psixologik konsultatsiyalar, terapevtik usullar va moddiy dasturlar orqali insonning o’zining o’ziga xosligi va o’zgarmasini aniqlash uchun yordam berishadi. Psixologlar o’zlashtirilgan usullar va texnikalar orqali insonlarning o’zini tuzatish va o’zgarmasini o’rganishda yordam beradi. Bu jarayon psixologik rivojlanish, o’zgarmas va o’z-o’zini aniqlashda yordam beradi.

References:

1. https://cyberleninka.ru/article/n/o-smirlik-davri-psixodiagnostikasi-va-psixokorreksiyasi
2. https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/5105/3540
3. http://genderi.org/osmirlik-davrida-psixik-rivojlanish-xususiyatlari.html
4. https://azkurs.org/osmirlik-davridagi-psixik-rivojlanishning-umumiy-tavsifi-reja.html
5. http://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/views/openlesson/download.php/?id=24604
6. Toshpo’latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154 DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510
7. Z.T.NISHANOVA, G.K.ALIMOVA PSIXOLOGIK XIZMAT. PSIXOKORREKSIYA. Toshkent 2019. 290-291-betlar.